



**YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIM XIZMATLARI
SIFATI ORQALI XORIJIY VA MAHALLIY TAJRIBANI BAHOLASH HAMDA
OROLBO'YI MINTAQASIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI**

Raxmanov Raxmanbergan Abdullaevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi.

r.raxmanov@tsue.uz

Dolzarblik. Jahon iqtisodiy forumining «Future of Jobs» hisobotiga ko'ra, ta'lim tizimining tadbirkorlikka yo'naltirilganlik darajasi yoshlar bandligini belgilovchi asosiy omillardan biriga aylanmoqda. Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO) ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda millionlab yoshlar na ta'lim, na ish, na kasb-hunarga o'qish bilan band emas, bu holat ekologik inqiroz sharoitidagi mintaqalarda yanada keskinlashadi. BMT Bosh Assambleyasi Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e'lon qilgani mintaqada ta'lim orqali yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishning xalqaro tajriba asosida ilmiy asoslanishini dolzarb vazifaga aylantirmoqda.

Muammo. Hozirgi kunda ta'lim-tadbirkorlik integratsiyasi bo'yicha xorijiy tajribalar (Finlandiya, Germaniya, AQSh, Janubiy Koreya, Isroil, Qozog'iston) alohida-alohida o'rganilgan, biroq ularni yagona qiyosiy tizimda tahlil qilish va ekologik inqiroz sharoitidagi mintaqaga moslashtirish metodologiyasi ishlab chiqilmagan; xorijiy modellarning qaysi elementlari Orolbo'yi mintaqasining o'ziga xos ijtimoiy-ekologik sharoitiga mos kelishini aniqlaydigan mezonlar tizimi mavjud emas; natijada mavjud davlat dasturlarida xorijiy tajribadan foydalanish tizimli emas, balki tarqoq xarakterga ega.

Maqsad. Ushbu tadqiqotning maqsadi yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishda ta'lim xizmatlari sifati orqali xorijiy va mahalliy tajribani qiyosiy baholash hamda ularning Orolbo'yi mintaqasida qo'llash imkoniyatlarini ilmiy asoslashdan iboratdir.

Tadqiqot natijalari. Birinchidan, olti davlat (Finlandiya, Germaniya, AQSh, Janubiy Koreya, Isroil, Qozog'iston) tajribasi tizimli qiyosiy tahlil qilinib, har birining institutsional o'zagi aniqlandi: Finlandiyada tadbirkorlik kompetensiyasi fanlararo modul sifatida milliy o'quv rejasiga 1990-yillardan singdirilgan; Germaniyada dual ta'lim tizimi o'quv vaqtining 70 foizini amaliyotga ajratadi.

Ikkinchidan, Isroil tajribasi alohida chuqur tahlil qilindi, chunki bu davlat Orolbo'yiga eng yaqin ekologik parallelni tashkil etadi: arid iqlim sharoitida «Yozma» davlat venchur dasturi (1993) va «DeserTech» tashabbusi orqali suv tanqisligi innovatsion tadbirkorlik imkoniyatiga aylantirilgan, natijada mamlakat «startap millati»ga aylangan.

Uchinchidan, Qozog'istonning «Bastau Business» dasturi (2017) qiyosiy tahlilda eng mos institutsional model sifatida aniqlandi, chunki u aynan qishloq va ekologik zaif hududlar yoshlariga yo'naltirilgan bo'lib, 2017-yildagi 15 ming ishtirokchidan 2019-yilga kelib 75 ming kishigacha (shundan 20 ming yosh fuqaro) o'sishni ta'minlagan hamda ta'limni moliyaviy qo'llab-quvvatlash bilan uzviy bog'lagan.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



To'rtinchidan, olti davlat tajribasini qiyosiy baholash mezonlari (ta'lim-amaliyot bog'lanish darajasi, moliyaviy integratsiya, ekologik moslashuvchanlik, hududiy qamrov) asosida tuzilgan matritsa tahlili shuni ko'rsatdiki, ushbu tajribalarning birortasini ham o'zgarishsiz ko'chirib bo'lmaydi - har biri o'ziga xos kuchli tomonga ega bo'lib, ularni mintaqaning ekologik-ijtimoiy o'ziga xosligiga moslab sintez qilish zarur.

Beshinchidan, xorijiy tajribalarning sintezi asosida muallif tomonidan «Tadbirkorlik - Tajriba - Ta'lim xizmatlari sifati» («3T modeli») ishlab chiqildi, unda Germaniya modeli «Tajriba» bo'g'ini uchun, Isroil va Qozog'iston tajribasi esa mintaqaning ekologik va hududiy o'ziga xosligini hisobga oluvchi moslashtirish mexanizmi uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Uslubiy tavsiyalar.

Birinchi yo'nalish - Germaniya tajribasi asosida ta'lim muassasalari va mahalliy korxonalar (fermer xo'jaliklari, qayta ishlash korxonalari) o'rtasida dual ta'lim shartnomalari tizimini pilot tarzda 2–3 tumanda joriy etish.

Ikkinchi yo'nalish - Isroil tajribasidan kelib chiqib, suvni tejovchi texnologiyalar va qurg'oqchilikka chidamli agrotexnologiyalar bo'yicha amaliy o'quv modullarini kasb-hunar va oliy ta'lim dasturlariga kiritish.

Uchinchi yo'nalish - Qozog'istonning «Bastau Business» modeli asosida qishloq yoshlariga bepul tadbirkorlik ta'limini taklif etib, uni kredit va grant olishda ustuvor huquq bilan bog'lash.

To'rtinchi yo'nalish - Finlandiya tajribasi asosida tadbirkorlik kompetensiyasini alohida fan emas, balki fanlararo modul sifatida maktab va kollej o'quv dasturlariga singdirish.

Beshinchi yo'nalish - xorijiy tajribalarning qo'llanilish natijalarini kuzatish uchun mintaqaviy monitoring ko'rsatkichlari tizimini joriy etish, bu orqali har bir moslashtirilgan elementning samaradorligini alohida baholash imkoniyati yaratiladi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, xorijiy tajribalarning birortasini ham o'zgarishsiz ko'chirish mumkin emas, biroq ularning har biridan tegishli institutsional elementni ajratib olish va Orolbo'yi mintaqasining ekologik-ijtimoiy o'ziga xosligiga moslashtirib sintez qilish orqali samarali milliy model yaratish mumkin. Ishlab chiqilgan «3T modeli» va uning xorijiy tajribaga asoslangan moslashtirish yo'nalishlari mintaqada ta'lim xizmatlari sifati orqali yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish siyosatini ilmiy asosda takomillashtirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Isenberg D.J. How to Start an Entrepreneurial Revolution // Harvard Business Review. – 2010. – Vol. 88, №6. – P. 40–50.
2. Finlandiya Respublikasi Ta'lim va madaniyat vazirligi. Guidelines for Entrepreneurship Education. – Helsinki, 2009 (2017-yil tahriri).



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



3. Germaniya Federativ Respublikasi. Kasb-hunar ta'limi to'g'risidagi Qonuni (Berufsbildungsgesetz), 1969-yil.
4. Isroil Innovatsiyalar Boshqarmasi. «Yozma» davlat venchur dasturi, 1993-yil.
5. Qozog'iston Respublikasi Hukumati. «Enbek» davlat dasturi: 2017–2021, №746-son qaror.
6. World Bank. RESILAND CA+ Programme: Climate Resilience and Entrepreneurship Education in Central Asia. – Washington, D.C.: World Bank, 2020–2023.
7. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi. Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e'lon qilish to'g'risidagi rezolyutsiya. – Nyu-York: BMT, 2021.